

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA DIREKTOR
O'RINBOSARLARINING ZAMONAVIY BOSHQARUV
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH**

*Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar
27-son DMTT direktor o'rinbosari
Muxammadiyeva Barno G'aniyevna*

Annatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Unda boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, liderlik va strategik fikrlashni rivojlantirishning muhim jihatlari tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования современных управленческих компетенций заместителей директоров дошкольных образовательных организаций. Анализируются пути повышения эффективности управленческой деятельности, внедрение инновационных подходов, развитие лидерских качеств и стратегического мышления. Особое внимание уделяется роли профессиональной подготовки и постоянного повышения квалификации руководящих кадров.

Annotation: This article examines the formation of modern managerial competencies of deputy directors in preschool educational institutions. It analyzes ways to improve management efficiency, implement innovative approaches, and develop leadership and strategic thinking skills. Special attention is given to the role of professional training and continuous professional development of managerial staff.

Kalit so'zlar: xodimlar, rahbar, boshqaruv, takomillashtrish, maktabgacha ta'lim tashkiloti, boshqaruv faoliyati.

Ключевые слова: коллектив, руководитель, менеджмент, совершенствование, организация дошкольного образования, управленческая деятельность.

Key words: staff, leader, management, improvement, preschool education organization, management activity.

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning intellektual va ma'naviy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ta'lim sifati, tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasi va pedagogik jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim tashkiloti rahbariyati, ayniqsa direktor o'rinbosarining boshqaruv salohiyatiga bog'liq. Zamonaviy rahbar o'rinbosari ta'lim standartlarini bilishi, jamoa bilan ishlash madaniyatiga ega bo'lishi, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishi, boshqaruvning zamonaviy modellari bilan

ishlashi, psixologik yetuklik va kommunikativ savodxonlikka ega bo‘lishi talab etiladi. Bu esa boshqaruv kompetensiyalarini muntazam rivojlantirishni taqozo etadi. MTTda samarali boshqaruv modeli direktor o‘rinbosarining mas‘uliyati, tashkiliy salohiyati va rahbarlik qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir.

Direktor o‘rinbosari — MTTdagi pedagogik jarayonni tashkil etuvchi, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, metodik jarayonni boshqaruvchi va sifat nazoratini ta‘minlovchi asosiy rahbar bo‘g‘inlaridan biridir. Shu sababli, uning boshqaruv kompetensiyasini oshirish bugungi kunda maktabgacha ta‘limni modernizatsiya qilishning strategik yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Zamonaviy boshqaruv faqat buyruq berish emas, balki jamoa bilan samarali muloqot qilish, innovatsion qarorlar qabul qilish, o‘zgarishlarni boshqarish, raqamli texnologiyalarni qo‘llay bilish, xodimlarni rivojlantirish va motivatsiya berish kabi ko‘plab ko‘nikmalarni talab qiladi. Direktor o‘rinbosarining aynan ushbu kompetensiyalarga ega bo‘lishi MTTdagi ta‘lim-tarbiya jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini belgilaydi.




Boshqaruvchanlik – bu tashkilot yoki tizimning belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda, jarayonlarni samarali nazorat qilish va boshqarish imkoniyatini ifodalaydi. Bu tushuncha, ayniqsa, ta‘lim muassasalari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ularning muvaffaqiyati rahbariyatning boshqaruv qobiliyati va tizimning boshqaruvchanligiga bog‘liq.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari rahbar xodimlarining boshqaruvchilik qobiliyatlarini takomillashtirish zamonaviy ta‘lim tizimining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon rahbarlarning zamonaviy boshqaruv usullarini o‘zlashtirishi, pedagogik va psixologik bilimlarini chuqurlashtirishi hamda ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Quyida ushbu maqsadga erishish uchun tavsiya etiladigan asosiy yo‘nalishlar keltirilgan:

Hozirgi sharoitda maktabgacha ta‘lim tizimi rahbarlari, mutaxassislarining samarali faoliyat yuritishlari uchun boshqaruvni va ushbu idoralar xodimlari mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslarini bilish g‘oyat muhimdir. Shu o‘rinda yana bir karra rahbarlik mas‘uliyati haqida to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Chunki bugun islohotning qay darajada amalga oshishi rahbarlarning dunyoqarashiga, halol va pok, tadbirkor va tashabbuskor bo‘lishiga bog‘liqdir.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli o‘yin hisoblanishi; maktabgacha ta‘lim uzluksiz ta‘limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta‘minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otadi, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida har

tomonlarni qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutadi.



Qarorda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, MTTlar infratuzilmasi va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiya maktabgacha ta'lim sohasidagi qonunchilikni undagi bo'shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilish, sohada davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag'batlantirishga, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash va malakasini oshirishga, xususiy sektorni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o'rganish kabi bir qator dolzarb vazifalarni bajarishi nazarda tutilgan. Ayniqsa, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko'rib chiqish, bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o'rganish ham bevosita komissiya zimmasiga yuklandi. Direktor o'rinbosari MTT faoliyatini tashkil etishda muhim boshqaruv subyekti hisoblanadi. U ta'lim-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish, pedagoglar faoliyatini nazorat qilish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish va jamoani samarali boshqarishda yetakchi rol o'ynaydi. Shu sababli ularning zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Direktor o‘rinbosarining boshqaruv kompetensiyasi tushunchasi

- Pedagogik jarayonni boshqarish
- Xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish
- Jamoa bilan samarali muloqot
- Ish rejaları va o‘quv dasturlarini tashkil etish
- Monitoring va tahlil olib borish
- Innovatsiyalarni joriy etish
- Raqamli texnologiyalarni qo‘llash

U nafaqat pedagoglar, balki bog‘cha ma‘muriyati, ota-onalar, tibbiyot xodimlari, psixolog va logoped bilan doimiy aloqada bo‘lib, ta‘lim-tarbiya jarayonining yagona mexanizm sifatida ishlashini ta‘minlaydi. Bu esa bolani har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi muvofiqlashtirilgan tizimni yaratishga zamin bo‘ladi. Metodist faoliyatining yangicha modelida kasbiy rivojlanishni uzluksiz tashkil qilish masalasi ham o‘ta dolzarbdir. U pedagoglarni nafaqat rasmiy malaka oshirish kurslariga yo‘naltiradi, balki ichki treninglar, mini-lektsiyalar, o‘zaro ochiq darslar, professional o‘quv klub faoliyati orqali ham o‘qitadi. Bu esa bog‘cha ichida “o‘quvchi pedagog” konsepsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, MTT direktor o‘rinbosarlarining zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish ta‘lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy talablar asosida shakllangan kompetensiyalar rahbarlarga ta‘lim jarayonini samarali boshqarish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va jamoani muvaffaqiyatli boshqarish imkonini beradi. Kelgusida rahbar kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini keng joriy etish hamda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Bugungi raqamli ta‘lim sharoitida direktor o‘rinbosarining professionalligi maktabgacha ta‘lim tizimining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Direktor o‘rinbosarining boshqaruvchilik qobiliyatlarini takomillashtirish maktabgacha ta‘lim tashkiloti faoliyatining umumiy samaradorligini oshiradi. Buning uchun tizimli o‘qitish, jamoaviy muhitni mustahkamlash va motivatsion boshqaruv mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 mayda PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 aprelda PQ-4296-sonli “Bola

huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 mayda PQ-4736-sonli “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
5. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi sayti.
6. Irgashova Zebiniso Nishonovna “Maktabgacha ta’lim tashkilotida metodist faoliyatining zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashuvi”

